

foydalanishmaydi. Islom bank tizimi esa bunday noqulayliklarni bartaraf etadi. Bundan tashqari, Toshkentdagi moliyaviy forumda, Apex bank raisi Bahrom No‘monovning fikricha, O‘zbekistonga Islom moliyasini tadbqiq etish orqali yiliga 10 milliard dollargacha jalb etilishi mumkinligini aytib o‘tdi. Hozirda Markaziy Bank va vazirliklar islomiy moliya faoliyatini qonuniylashtirish chora-tadbirlari ustida ishlamoqda. Bunga asosiy sabab, O‘zbekiston aholisining deyarli 90%i Islom diniga e‘tiqod qiladi. Shu bilan birga, Islomiy moliya o‘zining shaffofligi va etikasi, xatar va foyda teng taqsimlanishi bilan aholi e‘tiborini tortmoqda.

2018-yildan boshlab O‘zbekistonda Invest Finance Bank va Trastbank Islom taraqqiyot korporatsiyasi bilan moliyaviy kelishuvga erishdi. Keyinchalik esa, Asakabank, Kapitalbank, Hamkorbank, O‘zsanoatqurilishbank, Turonbank, Asia Alliance bank bilan **ham** shartnoma imzoladi.²¹⁵

O‘zbekistonda islom moliyasi tamoyillari asosida faoliyat yuritishga imkoniyat yaratuvchi mikromoliya tashkilotlari O‘RQ-765-sonli “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun imzolandi. Mikromoliya tashkilotlari tadbirkorlarga islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatishi mumkin.²¹⁶

Xulosa qilib aytganda, Islomiy moliya bu – sherikchilikka, aktivlar bilan ta‘minlanganlikka asoslangan, barqaror, ekologik, axloqiy va ijtimoiy mas‘uliyatli moliya bo‘lgani bois, uning iqtisodiyot, atrof-muhit, jamiyat uchun hech qanday zarari yo‘q, aksincha, an‘anaviy moliya tizimidan ko‘ra shaffof va moliyalashtirish obyekti aniq va ravshan bo‘lgan moliya tizimi hisoblanadi. Uni rivojlantirish kelajakda O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojiga katta hissa qo‘shishi muqarrar.

ISLOM BANKCHILIGI VA AN‘ANAVIY BANKLARNING QIYOSIY TAHLILI

***Jiyanov Uktam Panjiyevich,**
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Islom
iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi”
kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Zamonaviy dunyoda bank tizimi iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlik va rivojlanishni ta‘minlovchi asosiy o‘rinni egallaydi. Shu bilan birga, bank faoliyatiga turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular turli tamoyillar va qadriyatlarga asoslangan an‘anaviy va islom banklaridir. Islom banklari jahon moliya tizimida tobora muhim ahamiyat kasb etib, mutaxassislar va jamoatchilik e‘tiborini tortmoqda. Shu bilan birga, an‘anaviy banklar iqtisodiyotda muhim rol o‘ynashda davom etmoqda. Shuning uchun islom banki va an‘anaviy bank ishini qiyosiy tahlil qilishning dolzarbligi bank faoliyatining har bir turining

²¹⁵ <https://kun.uz/news/2019/06/23/oav-ozbekiston-ikki-yilda-islomiy-iqtisodiyotni-shakllantirdi>

²¹⁶ <https://t.me/huquqiyaxborot/11555>

xususiyatlarini va ularning butun moliya tizimiga ta’sirini tushunish zarurati bilan asoslanadi.

Islom banki sektori islom qoidalariga asoslanadi, bu esa banklar faoliyatini islom qonunlariga muvofiq boshqaradi. Islom banking asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

1. *Foizli operatsiyalarni taqiqlash (ribo)*. Islom banklari foiz bilan qarz bera olmaydi, chunki bu islom qoidalariga ziddir. Buning o’rniga ular almashish va riskni taqsimlash tamoyillariga asoslangan muqobil moliyaviy mahsulotlarni taklif qilishadi.

2. *Taqiqlangan sohalarga sarmoya kiritishni taqiqlash*. Islom banklari alkogol, tamaki, qurol-yarog’ va boshqa islom qoidalari tomonidan taqiqlangan sohalarga sarmoya kiritmaydi.

3. *Birgalikda ishtirok etish (mudoraba va musharaka) tamoyili*. Bu bank va mijozning qo’shma investitsiyalardan olingan foyda va zararlarni bo’lishishini bildiradi.

An’anaviy banklar umume’tirof etilgan moliyaviy standartlarga va ular faoliyat yuritayotgan mamlakat qonunlariga muvofiq ishlaydi. An’anaviy banklarning asosiy xususiyatlari quyidagilar bilan xarakterlanadi:

1. *Foiz stavkasi bo’yicha kredit berish*. An’anaviy banklar banking asosiy daromad manbai bo’lgan ma’lum foiz stavkasida kredit beradilar.

2. *Har xil turdagi moliyaviy vositalardan foydalanish*. An’anaviy banklar depozitlar, kredit kartalari, investitsiyalar va boshqalar kabi keng turdagi moliyaviy vositalardan foydalanishlari mumkin.

1-jadval

Islom va an’anaviy banklarning moliyaviy mahsulotlarini solishtirish

Moliyaviy mahsulot	Islom banki	An’anaviy bank
Mudoraba	Foyda taqsimoti	Taklif qilinmagan
Musharaka	Ishtirok etish	Taklif qilinmagan
Ijara	Lizing	Lizing
Murobaha	Foyda uchun sotish	Taklif qilinmagan

Qiyosiy tahlil asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, islom va an’anaviy banklar o’rtasida faoliyat tamoyillari va moliyaviy mahsulotlarda sezilarli farqlar mavjud bo’lib, bu ularning faoliyat samaradorligiga ta’sir qiladi. Keyingi tadqiqotlar bank faoliyatining har bir turining chuqurroq xususiyatlarini va ularning butun moliya tizimiga ta’sirini ochib beradi.

Islom moliyasi an’anaviy bank modellaridan farqli o’ziga xos yondashuv asosida moliyaviy operatsiyalarni taqdim etadi. Ushbu yondashuv islom iqtisodiyoti tamoyillariga asoslanadi va adolatli, axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatli moliyaviy tizimni yaratishga qaratilgan. Islom moliyasining an’anaviy banklarga nisbatan afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. *Islom iqtisodiyoti tamoyillari.* Islom moliya institutlari islom iqtisodiyoti tamoyillariga qat’iy rioya qiladi, ular foiz to’lash va olish (chegirma) va alkogol, tamaki, qimor va boshqalar kabi nomaqbul sohalarga sarmoya kiritishni taqiqlaydi. Ma’lumotlarga qaraganda, turli mamlakatlarda islom moliya institutlari o’zlarining islom iqtisodiyoti qoidalariga rioya qilishlari bilan mijozlar e’tiborini tortishda davom etmoqda.

2. *Risk ishtiroki.* An’anaviy bank kreditlarining belgilangan foiz stavkalari o’rniga, islom moliya institutlari foyda va zararda sheriklik evaziga tavakkalchilikda ishtirok etish mahsulotlarini taklif qiladi. Bu shuni anglatadiki, mijozlar va bank foyda va zararlarni bo’lishib, tomonlar o’rtasida yanada adolatli va hamjihatroq munosabatlarni yaratadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko’ra, tavakkalchilikda ishtirok etish modellari moliyaviy tavakkalchilikni kamaytiradi va barqaror iqtisodiy tizimni rag’batlantiradi.

3. *Inqiroz davridagi barqarorlik.* Ba’zi tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, islom moliya tizimlari moliyaviy inqiroz davrida yuqori barqarorlikni namoyish etadi.

4. *Ijtimoiy adolat va xayriya.* Islom moliya institutlari ijtimoiy adolatni mustahkamlashda faol ishtirok etmoqda. Zakot islom moliya operatsiyalarining majburiy elementi bo’lib, bu mablag’lar ko’pincha ijtimoiy va xayriya loyihalariga yo’naltiriladi. Xayriya qilish bilan bog’liq hisobotlar statistikasi islom moliyasining ijtimoiy farovonlikka ta’sirini aks ettirishi mumkin.

5. *Axloqiy investitsiyalar.* Islom moliya institutlari islom tamoyillariga mos keladigan loyihalarni mablag’ bilan ta’minlab, axloqiy investitsiyalarga e’tibor qaratadi. Yashil va barqarorlik sukuk hisobotiga (Green and sustainability sukuk report 2022) ko’ra, yashil va barqaror loyihalarga sarmoya kiritish islom moliya institutlari orasida tobora ommalashib bormoqda [2].

6. *Iqtisodiy rivojlanishda ishtirok etish.* Iqtisodiy rivojlanishda islom moliya institutlari asosiy rol o’ynashi mumkin. Infratuzilma, kichik va o’rta biznes va qishloq xo’jaligi loyihalarini islom moliyasi instrumentlari orqali moliyalashtirish iqtisodiy o’sishni rag’batlantirish va yangi ish o’rinlari yaratishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

7. *Xalqaro hamkorlik.* Islom moliya institutlari xalqaro hamkorlik va global islom moliya bozorlarini yaratishda tobora ko’proq ishtirok etmoqda. Xalqaro tranzaksiyalar va aktivlar hajmi bo’yicha statistik ma’lumotlar jahon iqtisodiyotida islom moliyasining ortib borayotgan roli va ta’sirini aks ettiradi.

8. *Innovatsiyalarni ishlab chiqish.* Islom moliya institutlari moliyaviy innovatsiyalarni rag’batlantirishi mumkin. Blokcheyn texnologiyalari, raqamli to’lovlar va boshqa innovatsiyalarni qabul qilish islom moliya yechimlarning samaradorligi va raqobatbardoshligini qo’llab-quvvatlashi mumkin [3].

9. *Shaffoflikka sodiqlik.* Moliyaviy operatsiyalarning shaffofligi islom moliyasining asosiy tamoyillaridan biridir. Bu mijozlar va investorlar o’rtasida ishonchni oshiradi. Moliyaviy firibgarlik hodisalari va qonunbuzarliklar haqidagi statistik ma’lumotlar islom moliya sohasidagi shaffoflik darajasini aks ettirishi mumkin.

10. Ta’lim va moliyaviy savodxonlik. Islom moliya institutlari jamiyatning moliyaviy savodxonligini tarbiyalash va oshirishda faol ishtirok etishi mumkin. Mijozlarga islom moliya operatsiyalari tamoyillari bo‘yicha ma’lumot berish moliyaviy resurslardan yanada mas’uliyat bilan va oqilona foydalanishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, Islom banklari va an’anaviy banklar ikki xil turdagi moliya institutlari bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Islom banklari o‘z faoliyatining xususiyatlarini belgilovchi islom qoidalariga asoslanadi, an’anaviy banklar esa umume’tirof etilgan moliyaviy me’yorlarga muvofiq ishlaydi. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, islom banklari islom qoidalariga rioya qilishga qaratilgan risklarni boshqarishning o‘ziga xos tuzilmasiga ega bo‘lib, bu ularning samaradorligi va moliyaviy operatsiyalar samaradorligiga ta’sir qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Байдаулет Е.А. *Исламий молия асослари.* – Т.: “O‘zbekiston” НМИУ 2019. – 427 б.
2. https://www.globalethicalfinance.org/wp-content/uploads/2022/10/Financing_A_Sustainable_Future_Web.pdf
3. *Islamic Finance Outlook 2022 edition.* URL:
<https://www.spglobal.com/ratings/en/research/pdf-articles/islamic-finance-outlook-2022-28102022v1.pdf>

SUKUK ISLOM QIMMATLI QOG‘OZLARIGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

Norboyeva Maftuna Shavkat qizi
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
islom iqtisodiyoti va moliyasi yo‘nalishi magistranti

Islom moliyasi bugungi kunga kelib, butun dunyoda qiziqish uyg‘otayotgan nafaqat musulmon davlatlar balki nomusulmon bo‘lgan davlatlarning ham bu tizimni moliyalashtirishning muqobil varanti sifatida foydalanayotganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. O‘rta Osiyo mamlakatlari jumladan, O‘zbekistonda ham bu tizimni rivojlantirish, unga doir qonunchilik bazasini yaratish, mutaxassislarni tayyorlash va shunga o‘xshash bir qancha vazifalar bugungi kunning dolzarb mavzularidan bo‘lib kelmoqda. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, banklar, investitsiya fondlarining rivojlanishi muhim. Aholimizning 90 % dan ortiq qismini musulmonlar tashkil etishi, ularning an’anaviy moliyaviy vositalardan juda kam qismi foydalanishi ushbu tizimni rivojlantirishga turtki bo‘lmoqda. Shu boisdan aholining bo‘sh turgan pullarini real iqtisodiyotga jalb qilishda islom moliya vositalaridan foydalanish muhim.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda Prezidentimiz tomonidan imzolangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “yo‘l xaritasida” islomiy mahsulotlar va xizmatlar hamda ularni amalga oshiruvchi tashkilotlarni soliqqa tortishning o‘ziga xos usullarini ishlab chiqish, islom moliyasi asosida joriy etilgan